



XALQ DEPUTATLARI XAZORASP TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 1-aprel

VII-12-51-12-174-K/25

Xazorasp tumani

Hazorasp tumanidagi shaharcha va qishloqlarining ma'muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 299-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo'linmasi tomonidan "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan Hazorasp tumanidagi shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash bo'yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko'rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi yig'ilishining №1-21-sonli bayoni o'rganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Hazorasp tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi "Ma'muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 299-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika aerogeodeziya Markazining Xorazm hududlararo bo'linmasi tomonidan Hazorasp tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko'rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi yig'ilishining №1-21-sonli bayoni tasdiqlansin va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to'g'risidagi ma'lumot 1-ilovaga, sxematik xaritasi 2-ilova muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning tasdig'i xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashidan so'ralsin.

4. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Ro'zimov va xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



VAISOV MASH'AL
ISLOMOVICH

Xalq deputatlari Xazorasp tumani
Kengashining
2025-yil 1-apreldagi
VII-12-51-12-174-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Hazorasp tumani shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Shaharcha va qishloqlar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1	Beshta qishlog'i	42 983	3 690,38
2	Bo'ston qishlog'i	41 353	3 899,28
3	Karvak qishlog'i	74 369	5 307,33
4	Muxomon qishlog'i	62 509	6 184,94
5	Ovshar qishlog'i	62 643	5 486,23
6	Pichoqchi qishlog'i	44 870	4 852,94
7	Sanoat qishlog'i	30 642	2 496,33
8	Yangibozor qishlog'i	52 559	8 582,9
9	Oqyop shaharchasi	9 026	204,81
10	Oyoqova shaharchasi	10 424	351,05
11	Hazorasp shaharchasi	16 027	792,06
	Jami	447 405	41 848,25

Xalq deputatlari Xazorasp tumani
Kengashining
2025-yil 1-apreldagi
VII-12-51-12-174-K/25 -son qaroriga
2-ilova



Xorazm viloyati Hazorasp tumanining ma'muriy-hududiy chegara XARITASI

